„LAYLI VA MAJNUN“ DOSTONIDA UCHRASHUV MOTIVINING METAFORIK TABIATI

Narzulloyeva Parvina Jahongir qizi
E-pochta: parvinanarzulloyeva@gmail.com
+998881441730
https://doi.org/10.5281/zenodo.23215485

Annotatsiya:
Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida uchrashuv motivining badiiy-estetik va metaforik tabiati tahlil qilinadi. Dostonda Layli va Majnunning uchrashuvi oddiy voqeiy hodisa sifatida emas, balki insonning ishqiy va ma’naviy kamolotini ifodalovchi ramziy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Uchrashuv, visol, ayriliq va hijron motivlarining o‘zaro munosabati orqali ishqning zohiriy hamda botiniy mohiyati ochib beriladi.
Kalit so’zlar:

Alisher Navoiy, “Layli va Majnun”, uchrashuv motivi, metafora, ramz, ishq, visol, hijron, ayriliq, Majnun, Layli, poetika, tasavvuf, majoziy ishq, badiiy obraz, ruhiy kechinma.

Yunon mutafakkiri Arastu o‘zining “Poetika” asarida shoirga tavsiyalar berarkan, metafora qo‘llashda ijodiy mohorat kerakligini alohida uqtiradi va ta’kidlaydiki: “… faqat shunigina o‘zgalardan o‘zlashtirib bo‘lmaydi, bu qobiliyat iste’dodning belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Axir, yaxshi metaforalar yaratish – o‘xshashlikni ko‘ra olish demakdir”. Anglashiladiki, Arastu metafora yaratish qobiliyatini tug‘ma iste’dod bilan bog‘liq tushunadi, shuning uchun ham buni boshqalardan o‘zlashtirib bo’lmaydi, deydi. Albatta, faylasufning “o‘xshashlikni ko‘ra olish”ga urg‘u berishi ham bejiz emas. Sababi buning uchun san’atkorona nigoh kerak, o‘xshashlikni ko‘ra olish obrazli tafakkur etishning eng muhim shartidir. Ya’ni, garchi Arastu ta’kidlab aytmagan bo‘lsa ham, bu erda poeziyaga xos obrazli tafakkur nazarda tutilayotganini bilish mumkin. Metafora she’riyatda obrazli tafakkur natijasi bo‘lib yaraladi[1].

Ko‘p o‘rinlarda metaforaga til hodisasi sifatida qaralsa ham, aslida bu xususiyati poetik nutqdagina to‘la namoyon bo‘ladi. Ya’ni metafora poetik nutqdagina badiiyat hodiasi, ya’ni badiiy obraz sifatida qabul qilinadi. Chunki metafora narsa hodisani shunchaki atabgina quymay, uni narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi. Ongda atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur – obraz yaratadi.

Metafora til hodisasi bo‘lsa ham, o‘zining bu xususiyatini poetik nutqdagina to‘la namoyon etadi. Boshqacha aytsak, metafora poetik nutqdagina badiiyat hodisasi, ya’ni badiiy obraz sifatida qabul qilinadi. Zero, metafora narsa-hodisani shunchaki atabgina qo‘ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqida jonli

[1] Арасту. Поетика. Аҳлоқи кабир. –Т.: «Йанги аср авлоди», 2004. В. 345.

tasavvur – obraz yaratadi. Ta'kidlash kerakki, bu obraz poetik nutqdagina asl holicha, ya'ni obraz sifatida qabul qilinadi, nutqning boshqa ko'rinishlari doirasida esa uning pirovard maqsadi nominatsiya bo'lib qolaveradi va tushuncha sifatida qabul qilinadi.

Metoforiklik esa badiiy obrazga xos muhim xususiyatlardan biri bo'lib, uni tor ma'noda tushunmaslik va uni "o'xshashlik" tushunchasining o'zi bilan bog'lab quymaslik lozim. Ya'ni metoforiklik deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash usuli tushuniladi. Haqiqiy yozuvchi, shoirning nigohi mohiyatga qaratilgan bo'lib, u voqealikdagi hammaga ko'rinib turgan narsa-hodisalarning tashqi o'xshashligi emas, balki yashirin ichki o'xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. Natijada o'qib turgan asarimiz va uning ichidagi voqea-hodisalar, narsa-predmetlar ham yangicha ma'no kasb etadi, kitobxonlarga noma'lum yangi qirralarini namoyon etadi.

"Badiiy obrazning metaforiklik bilan chambarchas bog'liq yana bir muhim xususiyati assotsiativlik hisoblanadi. Aslida, assotsiativlik — umuman inson tafakkuriga xos xususiyat. Zero, tashqi olam ta'sirida ongimizda biror narsaning aksi paydo bo'lishi hamon u bilan bog'liq assotsiatsiyalar ham uyg'onadi. Masalan, "qish" deyilishi bilan xayolimizda assotsiativ tarzda "qor", "sovuq", "po'stin", "chana" kabi u bilan bog'liq tushunchalar uyg'onadi. Umuman tafakkurga xos bu xususiyat obrazli tafakkurda yuksak darajada namoyon bo'ladi deyishimizning sababi shundaki, reallikda ko'rilgan bir narsa san'atkor xayoiida butunlay boshqa bir narsani, u bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lmagan narsani uyg'otishi mumkin. Jumladan, yuqorida ko'rib o'tilgan misollarda metaforiklik assotsiatsiyalar asosida yuzaga chiqqan. Masalan, sassiq hovuzdagi baliq assotsiativ tarzda biqiq muhitdagi inson bilan mazmuniy bog'lanadi. Misol uchun, shoiming nigohi suvi ayniganroq hovuzchadagi mitti baliqchaga tushdi, shu manzara uyg'otishi mumkin bo'lgan assotsiatsiyalarni taxmin- qilib ko'ramiz: "hovuz — chor tarafi devor bilan chegaralangan - toza suvdan uzilgan - tilla bo'lsa-da sassiq suvda yashaydi - u shundan boshqani ko'rmagan - sho'rlik shu erda yashashga majbur - xuddi biz kabi - biz ham dunyodan uzilgan - shundan boshqani ko'rmaganmiz - chegaralarimiz mustahkam - shu muhitni zo'r deb yashashga mahkummiz". Diqqat qilinishi kerak nuqta shuki,"hovuz - tilla baliqcha" assotsiatsiyalar zanjiridagi bitta halqaning mazmun-mohiyati (sho'rlik shu yerda yashashga majbur) bir turtki (xuddi biz kabi) o'laroq shoir ongida "biz - muhit" silsilasini harakatga keltiradi[2]".

Shundan kelib chiqib "Layli va Majnun" dostonidagi metaforiklikka to'xtaladigan bo'lsak, bir qancha ma'no va mazmun kelib chiqadi. "Layli va Majnun"da xoslar ishqi tarannum etilgan. Ammo unda yashiringan metaforiklik yaxshi tushunilmasa, ularning ishqi shunchaki ikki jins vakilining muhabbatiga o'xshab qoladi. Dostonning tub zamirida esa Allohga muhabbat va ungagina bo'lgan ishq ifodalangan. Navoiy hamd qismida Allohga quyidagicha murojaat qiladi:

Ey har sorikim qilib tajalli,
Ul mazhar o'lub jahonda Layli.

Navoiy dostonda Laylini tasvirini juda go'zal qiz sifatida, Majnunni esa aqlli, zehnli qiyofada aks ettiradi. Avom ishqida yigit-qiz bir-birini ko'rgandan so'ng, uchrashganidan

[2] Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2005.

keyin ularning o‘rtasida muhabbat tug‘iladi. “Layli va Majnun” da esa Majnun dunyoga ishq dardi bilan tug‘iladi. Buni “Go‘dak beshikda fig‘onlar tortar, afg‘onida esa dardning nishoni sezilar edi” yoki “o‘tni ko‘rganda uni ishq o‘ti gumon qilib, unga yashirincha mayl qilar edi” kabi jumlalardan bilish mumkin.Bundan ham ma’lumki, ushbu dostonda xoslar ishqi kuylanadi. Faqatgina metaforiklik tabiati va talqinini tushungan holda dostondagi bu ishqni va Majnun tabiatini anglash mumkin. Bu esa uchrashuv motivlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy, A. “Xamsa”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
2. Navoiy, A. “Layli va Majnun”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
3. Bertels, E. E. “Navoiy: Monografiya”**.** – Moskva: Nauka, 1965.
4. Hayitmetov, A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961.
5. Mallayev, N. M. “O‘zbek adabiyoti tarixi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.
6. Qayumov, A**. “**Alisher Navoiy”**.** – Toshkent: O‘zbekiston, 1991.